# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON, VI-QISM**



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun. VI-qism*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G‘afforovna,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko‘nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI ........ 12
**Abdullayev Azamat Akbar o'g'li**

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА ........ 17
**Джуманиязова Сабина Михайловна**

PAXTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQISH ........ 22
**Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich**

O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR ........ 29
**Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li**
**Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li**

TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS ........ 32
**F. Djalilov**

O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH ........ 41
**Abdullayev Axror Jaxbarovich**

ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 47
**Махкамова Надира Саидмуратовна**

MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIKLARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) ........ 55
**Ergashev Sherali Erali o'g'li**

BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODELDAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020–2024-YILLAR) ........ 60
**Ergashev Sherali Erali o'g'li**

IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH ........ 65
**Tashmatov Shuhrat Hamrayevich**

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI ........ 71
**Xalimov Shaxboz Xalimovich**

O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI ........ 77
**Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna**
**To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li**

SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI ........ 83
**Hamidova Shahzoda Odiljanovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI ..... 88
Sabirova Nodira Komil qizi

RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI ..... 95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi

XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI ..... 101
Avazbek Xalbekov

IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC ..... 108
Musaeva Shoira Azimovna

YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI ..... 116
Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ..... 122
Анвар Аллабергенов

RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI ..... 128
Allanazarova B.K.

BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI ..... 135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna

KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH ..... 139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li

KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH ..... 149
Razikov Otabek Rustamovich

O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI ..... 157
Matkabulova Dilorom Xalilullayevna

MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida) ..... 165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich
Narmetova Dilafruz Azamatovna

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ ..... 170
Ахмедова Шахноза Козим кизи

KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ..... 175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li

O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH ..... 181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna

ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ ............ 189
**Джусупов Кубанычбек**

ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR ............ 196
**Shamuratov Shahzod Janibek o‘g‘li**

SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH ............ 200
**Eshov Sherko‘zi Asatulloyevich**

THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES ............ 205
**Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna**

DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS ............ 209
**Khanifakhon Solikhova**

BANDLIKNI TA’MINLASHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida) ............ 213
**Z. Sh. Matniyozova**

JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH VA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI PROGNOZLASH ............ 218
**Umirova Gulmira Shodiboy qizi**

ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА ............ 224
**Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович**

KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI ............ 233
**Komilova Guli Bagandik qizi**

THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN PROMOTING GREEN ECONOMIC GROWTH: EVIDENCE FROM CENTRAL ASIAN ECONOMIES ............ 238
**Eshboyev Mirjalol Baxrom o‘g‘li**
**Ozatbekova Ozodaxon Nodirbek qizi**

ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЕ ИНТЕРВАЛЬНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ СРЕДНЕГО ЗНАЧЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ, ПРИТЯГИВАЮЩЕГОСЯ К УСТОЙЧИВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ ............ 250
**Турсунов Гафур Таирович**

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH ............ 259
**Ibragimov Nodirbek Baxodir o‘g‘li**

DEMOKRATIK TANLOV VA PROGRESSIV SOLIQQA TORTISHNING BARQARORLIGI ............ 266
**Malika Sharipova Maxmudjon qizi**

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL ENERGETIKA MANBALARINI UTILIZATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI ............ 273
**Ibadov Shoxrux Axmatilloyevich**

EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA TEMIR YO‘L TRANSPORTI IQTISODIY FAOLIYATINI PROGNOZLASH: 2030-YILGACHA SSENARIY TAHLILI ............ 277
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich**

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA MARKETING DASTURINING O‘RNI ............ 283
**Musayeva Shoira Azimovna**

O‘ZBEKISTONDA ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG‘URTA QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH ............ 289
**Karimberdiyeva Dilrabo Rasulovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

BANK TAVAKKALCHILIKLARINI BOSHQARISHDA SUG‘URTA INSTRUMENTLARINI QO‘LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 296
Matkarimova Ayman Jengisbaevna
O‘ZBEKISTONDA AGROSUG‘URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI ........ 303
Jo‘rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi
BOSHQARISHDA SUG‘URTA INSTRUMENTLARINI QO‘LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 309
Mustafayeva Sevara Rustamovna
O‘ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI ........ 314
Qodirova Farangiz Komilovna
COMPARATIVE ANALYSIS OF TOURISTS’ HOTEL SELECTION PREFERENCES IN THE MAJOR TOURISM REGIONS OF UZBEKISTAN ........ 320
Sardor Kuvandikov
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI ........ 329
Madenova Elmira Nizamatdinovna
BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI ........ 334
Shoyev Davronbek Axmadjonovich
O‘ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHI KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA TARMOQNI 2032-YILGACHA RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASH ........ 340
Usmonov Mirumar Abdulla o‘g‘li
YANGI O‘ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJINING DRAYVERI SIFATIDA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH ........ 349
Jannazarova Gauxar Kaipnazarovna
Raxmatova Sevinch Sobir qizi
O‘ZBEKISTONDA IFRSGA O‘TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING BOSHQARUV QARORLARIGA TA’SIRI: UZAUTO MOTORS MISOLIDA ........ 353
Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o‘g‘li
Jo‘rayeva Zahro Toshpo‘latovna
SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI ........ 358
Pyotr Kim
TOSHKENT VILOYATI BO‘STONLIQ TUMANIDA TURISTIK ZONALARNI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIYIQTISODIY AHAMIYATI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA) ........ 364
Tolibboyev Zafarbek Axror o‘g‘li
TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 372
Qarshiboyev Lochinbek Xusan o‘g‘li
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........ 379
Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich
QASHQADARYODA NODAVLAT UNIVERSITETLARINING TASHKILIY RIVOJLANISHI: TALABALAR VA XODIMLAR POTENSIALINI TARKIBIY VA DEMOGRAFIK TAHLIL ........ 382
Rahimov Sardor Uralovich

O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING JOYLASHUVINING HOZIRGI HOLATI......388
Kudratov Muhammad Rustamovich
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STATISTIK MA'LUMOTLARNI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAHLIL QILISH IMKONIYATLARI......393
Umarov Abbos Nuriddin o'g'li
ТРАНСФОРМАЦИЯ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ, СТРУКТУРНАЯ ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ И СЦЕНАРИИ РАЗВИТИЯ......400
Муниса Турдибаева
TURIZM SOHASIDA SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI......410
Yuldosheva Laylo Isroilovna
MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI......416
Oramov Jahongir Jo'rayevich
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH......421
Ollokulova Feruza Mansurovna
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA YUQORI TEXNOLOGIK USKUNALARNI XARID QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UMUMIY EGALIK QIYMATI (TCO) KONSEPSIYASINING AHAMIYATI......428
Dadamuxamedov Abduvaxob Abduvaxidovich
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISH HAMDA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH......433
Xalilov Bahromjon Bahodirovich
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH......441
Kalenov K.T.
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI......445
Sobirov Sayfiddin Baxrom o'g'li
ADIR EKOTIZIMLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARI TAHLILI......455
Qodirov Hamidullo Madaminjonovich
AQSH VA XITOY O'RTASIDAGI SAVDO URUSHINING JAHON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI......466
Maxmudillayev Bahromjon Shavkatjon o'g'li
O'ZBEKISTON FERMERLARINING XALQARO BOZORLARGA KIRISHINI KENGAYTIRISHDA EKSPORT KOOPERATSIYALARIDA ISHTIROK ETISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI MARJINAL BAHOLASH......472
Tursunqulov G'olibjon Shavkat o'g'li
TECHNOLOGY AND MODERN TOURISM: PAVING THE WAY FOR A SUSTAINABLE ENVIRONMENT......482
Freshta Qayoumi
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA INVESTITSIYA PORTFELINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI......488
Ergashev Olim Kenjayevich
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA SEKTORIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI......496
Ergashev Olim Kenjayevich
ВЛИЯНИЕ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИИ РЕСУРСНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ......503
Т.В. Ким

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI AUDITIGA KOMPYUTERLASHTIRILGAN AUDIT USULLARI (CAATS) VA TAHLILIY AMALLARNI JORIY ETISH ........ 509
Ibragimov Nodirbek Baxodir o‘g‘li

JAMIYAT EVOLYUSIYASIDA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING AHAMIYATIGA DOIR NAZARIY TALQINLAR ........ 516
Aripov Oybek Abdullayevich
Rustamov Dilshodjon Shaydullo o‘g‘li

SUG‘URTA FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI ........ 523
Umarova Aziza Hamidovna

O‘ZBEKISTON MAJBURIY SUG‘URTA BOZORIDA TARIF SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 529
Qo‘ziyeva Nozima G‘ayrat qizi

O‘ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI FAOL JALB QILISH XUSUSIDA ........ 535
Artikbayev Dilshod Mumindjanovich

O‘ZBEKISTONDA DUKKAKLI EKINLAR BOZORIDA NARX O‘ZGARUVCHANLIGI VA FERMERLARNING DAROMAD BARQARORLIGI ........ 541
Islamova Malika Ilyos qizi

ISLOM MOLIYASI VA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH ........ 547
Jo‘raqulova Muhlisa Jahongir qizi

СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ........ 553
Петр Ким

BAA VA O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKCHILIK TO‘G‘RISIDAGI QONUNLARNING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI ........ 559
Bektemirov Muhiddin Shomirza o‘g‘li

# BAA VA O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKCHILIK TO‘G‘RISIDAGI QONUNLARNING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI



**Bektemirov Muhiddin Shomirza o‘g‘li**
**O‘zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi o‘qituvchisi**
**O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**
**“Moliya” kafedrasi tadqiqotchisi**
**ORCID: 0009-0003-9189-8724**

**Annotatsiya.** Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va O‘zbekistonning islomiy bankchilik sohasidagi qonunchiligi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilindi. BAAda shakllangan 40 yillik tajriba hamda O‘zbekistonda islomiy bankchilikni joriy etish jarayonlari o‘rganildi. GAP-tahlil asosida har ikki mamlakat qonunchiligidagi institutsional, huquqiy va soliq sohasiga oid bo‘shliqlar aniqlanib, o‘zaro taqqoslandi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** islomiy bankchilik, qonunchilik, islom moliyasi boshqaruvi, GAP-tahlil, bank qonunchiligi.

**Аннотация.** Проведён сравнительно-правовой анализ законодательства Объединённых Арабских Эмиратов (ОАЭ) и Узбекистана в сфере исламского банкинга. Исследованы 40-летний опыт развития исламского банкинга в ОАЭ и процессы его внедрения в Узбекистане. На основе GAP-анализа выявлены и сопоставлены институциональные, правовые и налоговые пробелы в законодательстве обеих стран, а также разработаны практические рекомендации по их устранению.

**Ключевые слова:** исламский банкинг, законодательство, управление исламскими финансами, GAP-анализ, банковское законодательство.

**Abstract.** A comparative legal analysis of the Islamic banking legislation of the United Arab Emirates (UAE) and Uzbekistan was conducted. The 40-year experience of Islamic banking development in the UAE and the ongoing implementation of Islamic banking in Uzbekistan were examined. Based on a GAP analysis, institutional, legal, and tax-related gaps in the legislation of both countries were identified and compared, and practical recommendations were developed to address these shortcomings.

**Keywords:** Islamic banking, legislation, Islamic finance governance, GAP analysis, banking legislation.

## KIRISH

So‘nggi yarim asrda islomiy moliya sanoati kichik bozor segmentidan ko‘p trillion dollarlik ekotizimga aylandi. Bunda huquqiy tartibga solish infratuzilmasi muhim o‘rin tutdi. Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) bu boradagi yetakchi namunalardan biri hisoblanadi. Dastlabki islom banklaridan biri — Dubay islom bankining 1975-yilda ta’sis etilgani buning yorqin dalilidir. BAAda 1985-yilda dunyodagi birinchi maxsus islomiy bank to‘g‘risidagi qonun qabul qilinganidan so‘ng ushbu sohaning huquqiy bazasi 40 yil davomida izchil takomillashtirildi. Bu jarayon 2022-yilda qabul qilingan “Tijorat operatsiyalari to‘g‘risida”gi Qonun hamda 2025-yilda qabul qilingan Markaziy bank va Kapital bozori to‘g‘risidagi qonunlar bilan bosqichma-bosqich rivojlantirildi. Ushbu hujjatlarning barchasida Oliy shariat idorasi (Higher Shari’a Authority, HSA) markaziy o‘rin egallaydi. 2025-yil iyul oyida Dubay Kassatsiya sudi (eng yuqori instansiya) islomiy moliya shartnomalarida kechiktirilgan to‘lovlar uchun jarima yoki foizlar (ribo) undirishni taqiqlovchi muhim presedent qarorlarni, xususan, 595/2025 va 608/2025-sonli ishlar bo‘yicha qarorlarni qabul qildi. Sud ushbu taqiqni islomiy huquq (shariat) va jamoat tartibi (public policy) tamoyillariga asoslangan huquqiy yondashuv sifatida e’tirof etdi.

Oʻzbekistonda esa islomiy moliya boʻyicha dastlabki qadamlar nisbatan kechroq tashlandi. Oʻzbekiston ushbu sohaga ehtiyotkorona yondashdi: birinchi bosqichda toʻgʻridan toʻgʻri islomiy banklar faoliyatini tartibga soluvchi qonun ishlab chiqilmadi, balki dastlab mikromoliya tashkilotlari doirasida amaliy tajriba yoʻlga qoʻyildi. 2024-yil 26-iyulda Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni koʻrsatish tartibi toʻgʻrisida”gi 3536-son nizomi tasdiqlandi. Mazkur hujjat mikromoliya tashkilotlari uchun islomiy moliya xizmatlarini koʻrsatish tartibini belgilab berdi. Ikkinchi bosqichda esa Oʻzbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ–1126-son[1] Qonun bilan islomiy bank faoliyatini yoʻlga qoʻyish uchun ilk bor huquqiy asos yaratildi. Shu bilan birga, toʻqqiz turdagi normativ-huquqiy hujjatga oʻzgartirishlar kiritilib, sohani izchil rivojlantirishga qaratilgan kompleks islohotlar amalga oshirildi. Ikki davlatning islomiy bankchilikni rivojlantirish bosqichlaridagi farq ularning qonunchiligini qiyosiy-huquqiy jihatdan oʻrganish dolzarbligini oshiradi, chunki rivojlangan tajriba asosida yangi huquqiy tizimni yanada takomillashtirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Tadqiqotning obyekti — BAA va Oʻzbekiston Respublikasining islomiy bank faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimi. Tadqiqotning predmeti — ikki davlatdagi institutsional-huquqiy arxitektura, litsenziyalash, moliyaviy operatsiyalar nomenklaturasi, sud amaliyoti va soliqqa tortish mexanizmlari oʻrtasidagi qiyosiy-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqotning maqsadi — ikki davlat qonunchiligini yuqorida sanab oʻtilgan mezonlar boʻyicha qiyoslab, har bir modelning kuchli va nisbatan zaif tomonlarini hamda Oʻzbekiston qonunchiligidagi mavjud boʻshliqlarni (GAP) aniqlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: ikki davlatning Islom moliyasinazorati institutlarini tahlil qilish; litsenziyalash tartiblarini qiyoslash; moliyaviy operatsiyalar nomenklaturasini taqqoslash; sud amaliyotining ahamiyatini baholash; soliqqa tortish mexanizmlarini qiyoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islomiy bank huquqi boʻyicha xalqaro adabiyotlarda asosiy eʼtibor AAOIFI va IFSB standartlarining milliy qonunchilikka integratsiyalashuvi, islom moliyasi boshqaruvi (Shari’ah governance) modellari hamda riboning huquqiy ta’rifiga qaratilgan. Xususan, Dr. Yousuf Azim Siddiqi tomonidan tayyorlangan **“Islamic Banking Laws in the United Arab Emirates”** toʻplamida BAAning islomiy moliya boʻyicha beshta asosiy qonuni izohlanib, ular amaliy bank faoliyati misollari bilan boyitilgan. Ushbu tadqiqot BAAdagi institutsional fatvo ierarxiyasi hamda sud amaliyotidagi presedentlarning ahamiyatini tizimli tarzda yoritgan dastlabki ilmiy ishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro standartlarda, jumladan, AAOIFI va IFSB standartlarida islomiy moliya institutlarining islom moliyasi talablariga muvofiqligini ta’minlash mexanizmlari (islom moliyasi kengashlari, ichki islom moliyasi auditi, fatvo chiqarish tartib-qoidalari) standartlashtirilgan tarzda bayon etilgan. Biroq mazkur standartlarning milliy qonunchilikka integratsiyalashuvi davlatlar kesimida oʻziga xos xususiyatlarga ega.

Oʻzbekiston boʻyicha esa mavzuning yangiligi sababli akademik adabiyotlar hali shakllanish bosqichida. Mavjud tadqiqotlar asosan Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ–1126-son[2] Qonun mazmunini sharhlash bilan chegaralanib, uni xalqaro tajriba, xususan, BAA va Malayziya kabi yetakchi yurisdiksiyalar tajribasi bilan tizimli ravishda qiyoslovchi ilmiy ishlar deyarli uchramaydi. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy boʻshliqni qisman toʻldirishga xizmat qiladi. Avvalgi tadqiqotlardan farqli ravishda, unda Oʻzbekistonning islomiy bankchilik toʻgʻrisidagi qonuni BAAning **40-yillik** institutsional tajribasi bilan beshta aniq mezon, ya’ni institutsional arxitektura, litsenziyalash, moliyaviy operatsiyalar, sud amaliyoti va soliqqa tortish yoʻnalishlari boʻyicha qiyosiy tahlil qilinadi hamda GAP-tahlil metodologiyasi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur yondashuv tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat (qualitative) dizayniga asoslangan qiyosiy-huquqiy tahlil shaklida olib borildi. Birinchidan, qiyosiy huquqshunoslik metodi qoʻllanildi: ikki yurisdiksiyaning funksional ekvivalent institutlari (BAAdagi Higher Shari’a Authority va Oʻzbekistondagi Markaziy bankning Islomiy moliya kengashi) taqqoslanib, ularning vakolat doirasi, tashkil etilish tartibi hamda yuridik kuchi baholandi. Ushbu usulni qoʻllash natijasida ikki modelning fatvo

1 Oʻzbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ–1126-son Qonun (29.06.2026): https://lex.uz/uz/docs/-8099403

2 Oʻzbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ–1126-son Qonun (29.06.2026): https://lex.uz/uz/docs/-8099403

ierarxiyasidagi asosiy farq, ya’ni BAAda uch pog‘onali majburiy tizim, O‘zbekistonda esa ikki pog‘onali, biroq majburiylik darajasi hali to‘liq aniqlashtirilmagan tizim mavjudligi aniqlandi.

Ikkinchidan, mazmunli-huquqiy tahlil (doctrinal analysis) qo‘llanildi. Bunda har ikki davlatning rasmiy qonun matnlari moddama-modda o‘rganildi hamda shartnoma turlarining (Murabaha, Ijara, Istisna, Salam) huquqiy ta’rifidagi farqlar tahlil qilindi. Uchinchidan, GAP-tahlil metodi qo‘llanildi. Bunda «amaldagi holat» (O‘zbekiston qonunchiligi) va «etalon holat» (BAA tajribasi hamda AAOIFI/IFSB xalqaro standartlari) o‘rtasidagi farqlar jadval ko‘rinishida tizimlashtirildi, shuningdek, har bir aniqlangan bo‘shliqqa ustuvorlik darajasi (yuqori, o‘rta, past) belgilandi.

Manba sifatida BAAning beshta federal qonuni — **1985-, 2021- va 2022-yillarda** qabul qilingan qonunlar hamda **2025-yilda** qabul qilingan ikkita qonun, shuningdek, Dubay Kassatsiya sudining **2025-yil 8-iyuldagi** va **2025-yil 14-iyuldagi** qarorlari o‘rganildi. O‘zbekiston bo‘yicha asosiy manba sifatida O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–1126-son[3] Qonun olindi. Tadqiqot doirasi BAA va O‘zbekiston yurisdiksiyalari bilan chegaralandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Institutsional-huquqiy arxitektura

BAA modelida Oliy shariat idorasi (Higher Shari’a Authority, HSA) Markaziy bank tarkibida faoliyat yuritadi hamda uning qarorlari Ichki islom moliyasi nazorati qo‘mitalari uchun qonun darajasida majburiy hisoblanadi (24-modda, 8-band). Ichki islom moliyasi nazorati qo‘mitalari (Internal Shari’ah Supervision Committee – ISSC) islomiy banklar, an’anaviy banklardagi islomiy oynalar (Islamic windows) hamda takaful (islomiy sug‘urta) kompaniyalari faoliyatining islom moliyasi qoidalariga muvofiqligini nazorat qiluvchi institutsional darajadagi oliy organ hisoblanadi. Har bir institutda mustaqil Ichki islom moliyasi nazorati qo‘mitasi tashkil etilishi shart. Uning a’zolari manfaatdor shaxslar toifasiga kirmasligi, ya’ni ijro lavozimlarini egallamasligi, aksiyador bo‘lmasligi hamda ikkinchi darajagacha qarindoshlik manfaatlaridan xoli bo‘lishi qat’iy talab etiladi. Mazkur yondashuv uch pog‘onali nazorat tizimini (HSA → ISSC → Ichki audit) shakllantiradi.

O‘zbekistonda esa ikki bosqichli tizim joriy etilmoqda: Markaziy bank darajasida besh a’zodan iborat Markaziy bankning Islomiy moliya kengashi hamda bank darajasida kamida uch a’zodan iborat bankning Islomiy moliya kengashi faoliyat yuritadi. Biroq Markaziy bankning Islomiy moliya kengashi a’zolari va ularning vakolatlari Markaziy bank boshqaruvi tomonidan belgilanadi, uning qarorlarining boshqa institutlar uchun majburiyligi esa qonun darajasida aniq belgilab qo‘yilmagan. Bu jihat BAAdagi Oliy islom moliyasi idorasi (Higher Shari’a Authority) modelidan asosiy farqlardan biri hisoblanadi.

**Litsenziyalash tartibi**

BAAda 1985-yildan buyon yagona litsenziyalash tizimi amal qiladi. Unga ko‘ra, institutlar ta’sis hujjatlarida islom moliyasi talablariga rioya etish majburiyatini belgilashi shart. O‘zbekistonda esa yanada batafsil tartibga solish modeli joriy etilgan. Unda bank faoliyati litsenziyasi va islomiy bank faoliyati litsenziyasi alohida ajratilgan. Shu bilan birga, «faqat islomiy bank» tushunchasi hamda litsenziyalarning o‘zaro almashtirilish tartibi batafsil tartibga solingan. Islomiy bank litsenziyasini olish uchun bankning Islomiy moliya kengashi, maxsus bo‘linma va uch yillik biznes-reja kabi qo‘shimcha hujjatlar talab etiladi. Bu yondashuv BAAdagi umumiy tartibdan farqli ravishda protseduraviy jihatdan yanada batafsil tartibga solingan.

**Moliyaviy operatsiyalar nomenklaturasi va sud amaliyoti**

BAA qonunchiligida Murabaha, Istisna, Salam va Ijara kabi shartnomalar uchun aniq huquqiy ta’riflar, ularni tuzish shartlari hamda bekor qilish asoslari qonun moddalarida (468–496-moddalar) batafsil belgilangan. Shuningdek, har qanday shaklda foiz undirish taqiqi ham nazarda tutilgan (473-modda). O‘zbekistonning islomiy bankchilik to‘g‘risidagi qonunida esa moliyaviy operatsiyalar asosan nomma-nom sanab o‘tilgan bo‘lib, ularning batafsil tartibi islomiy moliya standartlariga havola qilingan. Bu holat huquqni qo‘llash amaliyotida qo‘shimcha me’yoriy hujjatlarga murojaat etishni talab etadi.

Mazkur farq sud amaliyotida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. 2025-yil 8-iyulda Dubay Kassatsiya sudi, keyinchalik 2025-yil 14-iyulda Umumiy Assambleya tomonidan tasdiqlangan qaroriga ko‘ra, Murabaha shartnomasi bo‘yicha kechiktirilgan to‘lov uchun 5 foizlik jarimani undirishni bekor qildi. Sud 473-moddaga muvofiq, bunday to‘lov kompensatsiya shaklida undirilgan taqdirda ham noqonuniy ekanligini e’tirof etdi va ushbu tamoyilni jamoat tartibi darajasida mustahkamladi. O‘zbekiston qonunchiligida bunga o‘xshash aniq taqiqlovchi norma mavjud emas. Fuqarolik kodeksiga kiritilgan o‘zgartirish «foizlar va (yoki) boshqa daromadlar» iborasining qo‘llanish doirasini kengaytiradi, biroq riboni taqiqlash mexanizmini bevosita belgilamaydi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining $480^5$-moddasi yangi tahririda islomiy bank faoliyati doirasida

3 O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–1126-son Qonun (29.06.2026): https://lex.uz/uz/docs/-8099403

mijozlarning to‘lovlarni kechiktirishi natijasida undirilgan penyalar bankning daromadi hisoblanmasligi, balki xayriya maqsadlariga yo‘naltirilishi belgilangan. Shuningdek, ushbu mablag‘lar foyda solig‘i bazasini aniqlashda chegirib tashlanadigan xarajatlar tarkibiga kiritiladi. Mazkur yondashuv AAOIFI xalqaro standartlariga mos keladi, ya’ni mijoz tomonidan to‘langan jarima bank daromadiga emas, balki xayriya maqsadlariga yo‘naltiriladi.

**Soliqqa tortish mexanizmlari**

BAAda islomiy moliya institutlari savdo-sotiq va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ayrim cheklovlardan ozod etilgan bo‘lsa-da, soliqqa tortishning alohida bobi mavjud emas. O‘zbekistonda esa Soliq kodeksiga maxsus $71^2$-bob kiritilib, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etish (jumladan, Murabaha ustamasi), foyda solig‘ida islomiy qarzlarni alohida maqomda e’tirof etish hamda jismoniy shaxslarni daromad solig‘idan ozod etish tizimli ravishda tartibga solingan. Bu jihat O‘zbekiston modelining muhim afzalliklaridan biri sifatida e’tirof etilishi mumkin.

**Kuchli va rivojlantirish imkoniyatlari**

BAA islomiy bankchilik qonunchiligining kuchli tomonlari quyidagilardan iborat: 40-yillik institutsional uzluksizlik, markazlashtirilgan va majburiy fatvo tizimi, sud amaliyoti orqali huquqiy yondashuvlarning mustahkamlanishi, shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning batafsilligi hamda islom moliyasi kengashi mustaqilligini ta’minlovchi kafolatlarning mavjudligi.

BAA islomiy bankchilik qonunchiligini yanada rivojlantirish imkoniyatlari sifatida qonunchilikning bir nechta hujjatlar o‘rtasida taqsimlanganligi, 1985-yilgi qonunning ayrim normalarini zamonaviylashtirish zarurati hamda soliqqa tortishning alohida tartibga solinishi istiqbollari qayd etilishi mumkin.

O‘zbekiston islomiy bankchilik qonunchiligining kuchli tomonlari quyidagilardan iborat: kompleks va yagona qonunchilik yondashuvi, ilg‘or ikki litsenziyali model, batafsil va tizimli soliq rejimi, ijtimoiy inklyuziya talablarining integratsiyasi hamda mikromoliya sektorini qamrab olishi.

O‘zbekiston islomiy bankchilik qonunchiligini yanada takomillashtirish yo‘nalishlari sifatida Markaziy bankning Islomiy moliya kengashi qarorlarining yuridik kuchini yanada aniqroq belgilash, mustaqil islom moliyasi nazorati institutini rivojlantirish, riboni taqiqlash mexanizmlarini yanada batafsil tartibga solish, sud amaliyoti va ixtisoslashgan adliya infratuzilmasini rivojlantirish hamda islom moliyasi standartlarining xalqaro andozalar bilan uyg‘unligini yanada mustahkamlashni ko‘rsatish mumkin.

GAP-tahlil: jamlangan jadval

1-jadvalda ikki davlat qonunchiligi o‘rtasidagi asosiy farqlar hamda O‘zbekiston uchun istiqbolli rivojlantirish yo‘nalishlari jamlangan.

1-jadval

BAA va O‘zbekiston islomiy bank qonunchiligi bo‘yicha GAP-tahlil[4]

| Mezon | BAA holati | O‘zbekiston holati | GAP (bo‘shliq) | Ustuvorlik | Mezon |
|---|---|---|---|---|---|
| Markaziy islom moliyasi organi qarorlarining majburiyligi | HSA qarorlari ISSC va boshqa organlar uchun qonun darajasida majburiy. | Markaziy bank kengashining vazifalari belgilangan, majburiylik darajasi aniq belgilanmagan. | Yuridik kuchini aniq belgilash zarur. | Yuqori | Markaziy islom moliyasi organi qarorlarining majburiyligi |
| Kechiktirilgan to‘lovlar (Late payment) | Har qanday kechikish foizi (hatto kompensatsiya deb atalsa ham) taqiqlanadi (sud qarori, **2025-yil**). | Undirilgan penyalar bankda qolmaydi, balki to‘liq xayriya maqsadlariga yo‘naltiriladi. | Maxsus modda kiritish zarur. | Yuqori | Kechiktirilgan to‘lovlar (Late payment) |
| islom moliyasi nazorati mustaqilligi | ISSC uchun batafsil mustaqillik kafolatlari mavjud. | Bank kengashi uchun qisqa norma belgilangan. | Mustaqillik mezonlarini kengaytirish. | O‘rta | islom moliyasi nazorati mustaqilligi |
| Shartnoma turlarining qonun darajasidagi ta’rifi | Murabaha, Istisna, Salam, Ijara — har biri alohida moddada tartibga solingan. | Faqat nomlari sanab o‘tilgan, standartlarga havola qilingan. | Asosiy shartlarni qonunda belgilash. | O‘rta | Shartnoma turlarining qonun darajasidagi ta’rifi |
| Sud amaliyoti va ixtisoslashgan adliya | Kassatsiya sudi darajasida presedent mavjud. | Mavjud emas (qonun hali amaliyotga joriy etilmagan). | Sudyalarni tayyorlash dasturi. | Past–o‘rta | Sud amaliyoti va ixtisoslashgan adliya |
| Soliqqa tortish va litsenziyalash kompleksligi | Tarqoq, alohida bob va ikki litsenziya tushunchasi mavjud emas. | Alohida bob, ikki litsenziya turi — batafsil va tizimli. | — (O‘zbekiston ustunligi) | — | Soliqqa tortish va litsenziyalash kompleksligi |

4 Muallif ishlanmasi

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻtkazilgan tahlil shuni koʻrsatadiki, BAA va Oʻzbekiston islomiy bank faoliyatini tartibga solishda tubdan farqli, ammo har biri oʻz mantiqiga ega boʻlgan ikki modelni tanlagan. BAA modeli **40-yillik** institutsional evolyutsiya natijasida markazlashtirilgan, majburiy fatvo ierarxiyasi va sud amaliyotida mustahkamlangan yuqori huquqiy aniqlikni taʼminlaydi. Oʻzbekiston modeli esa nisbatan yangi boʻlishiga qaramay, soliqqa tortish va litsenziyalash sohalarida BAA tajribasidan ham ilgʻorroq tizimli yechimlarni taklif etadi. Asosiy aniqlangan boʻshliqlar — Markaziy bankning Islomiy moliya kengashi qarorlarining majburiylik darajasi hamda riboning aniq taqiqlanish koʻlami — eng yuqori ustuvorlikka ega (1-jadval).

Oʻtkazilgan tahlil asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Markaziy bankning Islomiy moliya kengashi qarorlarining boshqa institutlar uchun majburiy yuridik kuchini qonun darajasida aniq belgilash;

Islomiy moliya operatsiyalarida har qanday shaklda jarima undirish taqiqi hamda bunga muvofiq boʻlmagan kelishuvlarning bekor qilinishi toʻgʻrisida BAAning **473-moddasi**ga oʻxshash maxsus normani kiritish;

Bankning Islomiy moliya kengashi mustaqilligi mezonlarini ISSC tajribasiga muvofiqlashtirish va kengaytirish;

«Islomiy moliya standartlari»ning aniq xalqaro andozalarga (AAOIFI/IFSB) asoslangan mexanizmini belgilash;

Islomiy moliya nizolarini koʻrib chiqish boʻyicha sudyalar yoki arbitraj sudlari arbitrlarini maxsus tayyorlash dasturini joriy etish.

Oʻzbekiston 2026-yilgi qonun islohotlari orqali islomiy bankchilik sohasidagi xalqaro tajribani milliy qonunchilikka moslashuvchan tarzda implementatsiya qilishga intilgan. Ayniqsa, Soliq va Fuqarolik kodekslari, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi «Davlat boji toʻgʻrisida»gi OʻRQ-600-son[5] Qonun normalarining oʻzaro uygʻunlashtirilishi yaqin istiqbolda Oʻzbekistonning Markaziy Osiyoda islom moliyasining yirik va jozibador markazlaridan biriga aylanishi uchun mustahkam huquqiy poydevor boʻlib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot ikki yurisdiksiya bilan chegaralangan boʻlib, uning natijalari kelgusidagi tadqiqotlarda Oʻzbekistonning islomiy bankchilik toʻgʻrisidagi qonunini amaliy qoʻllash masalalarini boshqa davlatlar, xususan, Qozogʻiston, Qirgʻiz Respublikasi, Tojikiston kabi qoʻshni mamlakatlar, shuningdek, Malayziya va Saudiya Arabistoni tajribasi bilan qiyosiy oʻrganish uchun ilmiy asos boʻlib xizmat qilishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI


1. Siddiqi, Y. A. (2026). *Islamic Banking Laws in the United Arab Emirates* (2nd ed.). Beirut: Kanz Publishers.
2. Federal Decree-Law No. (50) of 2022 Regarding Commercial Transactions Law. United Arab Emirates.
3. Federal Decree-Law No. (6) of 2025 Regarding the Central Bank, Regulation of Financial Institutions and Activities, and Insurance Business. United Arab Emirates.
4. Federal Decree-Law No. (33) of 2025 Regarding the Regulation of the Capital Market. United Arab Emirates.
5. Federal Decree-Law No. (32) of 2021 on Commercial Companies. United Arab Emirates.
6. Federal Law No. (6) of 1985 Regarding Islamic Banks, Financial Institutions and Investment Companies. United Arab Emirates.
7. Dubai Court of Cassation. (2025). *Ruling in Appeal Nos. 595/2025 and 608/2025 (Commercial), 8 July 2025; General Authority Ruling, 14 July 2025.*
8. Oʻzbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida” OʻRQ–1126-son Qonuni(29.06.2026): https://lex.uz/uz/docs/-8099403
9. Oʻzbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi «Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida»gi 154-I-son Qonuni: https://lex.uz/uz/docs/-72266
10. Oʻzbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi «Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida»gi 216-I-son Qonuni: https://lex.uz/ru/docs/-2681
11. Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
12. AAOIFI. *Shari'a Standards.*
13. IFSB. *Core Principles for Islamic Finance Regulation.*


5 Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi «Davlat boji toʻgʻrisida»gi OʻRQ-600-son Qonun: https://lex.uz/docs/-4680944

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/6**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz